# Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi



# Xudo Ibrohimning sevgisini sinaydi


...tomonidan yozilgan: Edward Hughes
...tomonidan illustrasiya qilingan:
Byron Unger; Lazarus
Alastair P.
...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
M. Maillot; Tammy S.


...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

BFC
PO Box 3
Winnipeg, MB R3C 2G1
Canada



©2020 Bible for Children, Inc.
Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.






Bir kuni kechasi Xudo Ibrohimga qiyin sinov berdi. Xudo Ibrohim o'gli Ishoqnimi yoki Xudoni ko'proq sevishini sinab ko'rmoqchi edi.


Xudo: "O'g'ling Ishoqni olib, qurbonlikka keltir," -dedi. Bu juda ham qiyin sinov edi. Ishoqni qurbonlikka keltirish? O'z o'g'lini-ya? Ibrohim o'g'lini juda ham yaxshi ko'rardi.
3


Lekin Ibrohim hatto vaziyatni tushunmasa ham Xudoga ishonish kerakligini bilardi. Erta tongda Ibrohim o'g'li va ikki xizmatkori bilan qurbonlik keltirish uchun toqqa yo'l oldi.
4


Ketishdan oldin Ibrohim qurbonlik uchun o'tin tayyorladi. U Xudoga itoat etishni rejalashtirgan edi.
5


Uch kundan so'ng ular toqqa yaqinlashib qolishdi. Ibrohim xizmatkoriga: "Shu yerda tur, biz borib, Xudoga hamdu sano aytib, qaytib kelamiz", -dedi.
Ishoq o'tinlarni, Ibrohim pichoq va kerakli narsalarni oldi.
6


Ishoq: "Ota, qurbonlik qo'zisi qani?" -deb so'radi. Ibrohim: "Xudoni O'zi uni beradi," -deb javob berdi.
7


Ular ikkalasi Xudo tayinlab qo'ygan joyga kelishdi. U yerda Ibrohim qurbonlik joyi qurib, o't yoqish uchun o'tin tayyorladi. Ibrohim hayotida ko'p qurbonlik joylari qurgan, ammo bunisi eng qiyini edi.
8


Ibrohim o'gli Ishoqni bog'lab, qurbongohga yotqizdi. U haqiqatdan ham Xudoga itoat etib, o'g'lini qurbonlikka keltiradimi?
9
Albatta! Ibrohim pichog'ini balandga ko'targanda, pichoq yaraqlab turardi. Uning yuragi esa ezilardiyu, ammo Ibrohim Xudoga itoat etish lozimligini bilardi.
10
Shu paytda Xudoning farishtasi zohir bo'lib, Ibrohimga: "To'xta! Sen haqiqatdan ham Xudodan qo'rqishingni isbotlading!" -dedi.
11
Ibrohim butalar orasida qo'zini ko'rib, o'g'lini yechdi. So'ng qo'zini qurbonlikka keltirdi. Ishoq ham: "Xuddi otam aytgandek, Xudo qurbonlik qo'zisini berdi", -deb o'yladi.
12
Ota-bola Xudoni ulug'lab turganda, farishta Ibrohimga shunday dedi: "Sening itoatkorliging tufayli kelasi avlodlaring marhamatli bo'ladi!" Ibrohim avlodidan keyinchalik Masih kelib chiqadi.
13
Ibrohim va Ishoq uyga qaytib kelishdi. Bir muddat o'tgandan keyin Sora vafot etdi. Ibrohim ayolini va Ishoq onasini yo'qotdi.
14
















Xudo Ibrohimning sevgisini sinaydi

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Ibtido 22-24

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130

20




5 60



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16